



MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR IJODIY FAOLIYATLARINING RIVOJLANISHIDA INTEGRATSION MUSIQA DARSINING AHAMIYATI

Muallif: Rizayeva Feruza Farxod qizi¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti 2-bosqich magistranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17325979>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalarning ijodiy faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan musiqa darslarining o'рни ochib berilgan. Tadqiqotda musiqa fanining boshqa fanlar bilan uyg'unlashuvi orqali bolalarda estetik did, musiqiy savodxonlik, emotsional sezgirlik va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif integratsion musiqa darslari nafaqat musiqiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'quvchilarda madaniy merosga hurmat, jamoaviylik, va individual ijodiy ifoda kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni rivojlantirishda muhim vosita ekanligini asoslab beradi. Maqola tajriba natijalari, pedagogik kuzatishlar va ilg'or xorijiy amaliyotlarga tayangan holda yozilgan.

Kalit so'zlar: integratsion yondashuv, musiqa darsi, ijodiy faoliyat, maktab yoshidagi bolalar, estetik tarbiya, fanlararo integratsiya, musiqiy rivojlanish, emotsional intellekt.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda estetik dunyoqarash, musiqiy did va emotsional sezuvchanlikni rivojlantirishda musiqa darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan musiqa darslari nafaqat o'quvchining musiqiy rivojlanishiga, balki uning umumiy ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Musiqa darsida o'quv jarayonini tashkil etishda, avvalo, o'qituvchi hissiy (psixologik) atmosferaga ta'sir o'tkazishi kerak. Yangi mavzuni zavq bilan o'tishi, „o'qituvchi-do'st“, „o'qituvchi-hamkor“ formulasi orqali darsda ijodiy muhit yaratish eng samarali yo'ldir. Dars yakuniga qadar o'qituvchi faqatgina o'zi so'zlashi, o'quvchilarni muloqotga undamasligi aslo mumkin emas. O'qituvchi o'zi berayotgan yangi ma'lumotga o'quvchilardan qo'shimcha ma'lumot ham talab etishi kerak. Chunki bugungi davr o'quvchilari uzluksiz internet tarmog'i orqali ko'plab yangiliklardan xabardor bo'lib turadi. Hayotimizni musiqasiz tasavvur etolmaymiz. Ammo beixtiyor o'z istaklarimizga ko'ra ularni tanlaymiz. Masalan, bolalarni klassika bilan tanishtirish, ularda bu janrga muhabbat uyg'otish va konsert zallarida tinglash mumkin bo'lgan musiqa ekanligini tushuntirish mumkin. Bunda klassik, pop, rok janrlarining tarkibiy qismini aks ettiradigan asarlarni tanlashimiz samara beradi. Ushbu uslublar yordamida bolalar o'zlarining ruhiga yaqin ritmlar orqali mumtoz musiqa bilan tanishadi.¹

¹ BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
Astanova Durдона Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Musika ta'limi" yo'nalishi 3-kurs talabasi

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqdir. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi hamda bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: „Ishonch bilan gapir, ana shunda soz ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi“. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining „o'sib“, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Integratsion yondashuvning mohiyati. Integratsion yondashuv — bu bir nechta fanlarni o'zaro bog'liq holda, yagona maqsad sari yo'naltirib, o'quvchilarda ko'p qirrali kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik uslubdir. Musiqa darslarida adabiyot, tasviriy san'at, tarix, geografiya kabi fanlar bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilar mavzularni chuqurroq anglaydilar va ular o'z musiqiy tajribasini boshqa fanlar bilan bog'lab, ijodiy ifodalay boshlaydilar.

Maktab yoshidagi bolalarning xususiyatlari. Maktab yoshidagi bolalar (7–11 yosh) emotsional jihatdan faol, obrazli fikrlash kuchli bo'lgan, eshitish va tasavvur qilish imkoniyatlari yuqori bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Bu yoshda musiqiy materiallar orqali ularni o'rganishga, obraz yaratishga va ijodiy ifodalashga yo'naltirish katta samaralar beradi. Aynan integratsion darslar ushbu yoshdagi bolalarning qiziqishlarini uyg'otadi, yangi g'oyalarni mustaqil yaratishga undaydi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda musiqa darsining o'rni

Musiqa darslari orqali o'quvchilar quyidagi yo'nalishlarda ijodiy faoliyat olib boradilar:

- **Musiqiy improvizatsiya:** bolalar musiqa asboblari erkin improvizatsiya qilish orqali o'z fikrini ifodalaydi.
- **Qo'shiq ijodi:** o'zlari she'r yozish, unga mos ohang tanlash yoki yaratish orqali musiqiy kompozitsiyalar yaratadilar.
- **Harakatli faoliyat:** raqs, ritmik harakatlar orqali musiqiy obrazni jonlantirish, o'ziga xos sahna chiqishlarini tayyorlash.
- **Fanlararo loyihalar:** musiqa bilan bog'liq ilmiy-ijodiy ishlar, sahna ko'rinishlari yoki integratsion loyiha ishlarini amalga oshirish.

Ilg'or tajribalar asosida xulosalar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsion musiqa darslari orqali o'quvchilar:

- musiqiy madaniyatga chuqurroq kirib boradilar;
- o'z fikrlarini erkin va estetik ifodalashni o'rganadilar;
- boshqa fanlarga nisbatan ham qiziqishi ortadi;
- ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, estetik baholash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Xususan, tajriba darslari asosida aniqlanishicha, integratsiyalashgan musiqa darslarida qatnashgan o'quvchilarning 78 foizi ijodiy faoliyatga faolroq jalb bo'lgan.

Musiqaning madaniy hayotda tutgan o'rni muhim bo'lib, musiqiy ta'lim tarbiyani amalga oshirishda uning bosh maqsad va vazifalarini to'liq anglab mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, o'qituvchining dolzarb vazifalaridandir. Musiqa

pedagogikasi, uslubiy va moddiy ta'minot, musiqa folklori, iqtidori cheklangan bolalar, vorislik qilish, spetsifik xususiyatlar, aralash dars, faol, emotsional ta'sir, ruhiy ta'sir, ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi, pedagogik tafakkur egasi, badiiy ehtiyoj, badiiy baholash, kuyning o'zgaras va o'zgaruvchan qaytarilishi, notaga qarab kuylash. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv fani umumiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Hozirgi zamon musiqa muallimi yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqat, ilg'or pedagogik tafakkur egasi bo'lmog'i lozim. U o'zining uzluksiz kasbiy madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. U musiqa, nafosat, pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan, musiqa o'qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim va malakalar egasi bo'lmog'i darkor. Ayniqsa, musiqa o'qituvchisi ixtisosida zarur me'yorda cholg'uchilik, xonandalik, xor dirijerligi va musiqa nazariyotchiligi sifatleri mujassam bo'lmog'i lozim. U milliy musiqa hamda o'zbek adabiy tilini mukammal bilmog'i, umumbashariy musiqa madaniyatidan, kundalik musiqiy-madaniy hayotdan voqif bo'lishi shart. Musiqa muallimi pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.²

O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta'lim-tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o'qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo'lsak, o'qituvchi avvalo o'zining so'z mahorati, cholg'u asbobida chalish, qo'shiq kuylash, turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quraylik. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004.
3. .L.B.Umurzoqova "Роль музыкального образования развитии личности" 2022.
4. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.
5. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent, "San'at" – 2001-yil.
6. Qodirov R.Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. – Toshkent, "G'. G'ulom." Nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997-yil.
7. Akrashina O.A. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, Просвещение, 1983-yil.
8. Гулов, С. Н. (2018). РОЛЬ ЛИДЕРА НАЦИИ В РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННЫХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ. Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук, (2), 256-259.

² UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI Sadritdin Nijozovich Gulov Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi s.n.gulov@buxdu.uz, «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5